EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH AHAMIYATI

G'aybullayev Abdunabi Abduvohid o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
eksport, diversifikatsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, tashqi bozorlar, eksport siyosati, iqtisodiy diversifikatsiya, milliy iqtisodiyot.

Abstract
Ushbu maqolada eksportni diversifikatsiyalash orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Eksport mahsulotlari va bozorlarining xilma-xilligi iqtisodiy o'sish va tashqi shoklarga chidamlilikni oshirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada eksportni diversifikatsiyalash strategiyalari, ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri hamda barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasi o'rganiladi. Shuningdek, mamlakatlararo tajribalar va amaliy tavsiyalar berilib, eksport siyosatini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Xalqaro savdo mamlakatlarning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasidagi tafovutlar tufayli yuritilishi to'g'risidagi nazariya – eng keng tarqalgan xalqaro savdo nazariyalaridan biri hisoblanadi. U shvetsiyalik olimlar Eli Xeksher va Bertil Olin tomonidan asoslab berilgan (Samuelson P. Ekonomika. V 2 t. – M.: Algon, 1992. – T. 2, gl. 40, 41.).

Mazkur nazariyada turli mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada ta'minlanganligi va tovar ishlab chiqarishda ma'lum mahsulot turlariga ixtisoslashuv mavjudligiga alohida e'tibor qaratilganligi uchun, u «omillar nisbati» (proporsiyasi) nomi bilan ham yuritiladi. Milliy xo'jaliklar ishlab chiqarishida vujudga keladigan tafovutlar mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari – yer, mehnat, kapital bilan turli darajada ta'minlanganligi, shuningdek, u yoki bu tovarlarga bo'lgan ichki iste'molning turlicha ekanligi bilan izohlanadi.

Amerikalik iqtisodchilar – P.Samuelson va V. Stolperlar Xeksher- Olin teoremasi isbotini yanada takomillashtirib, o'zlarining nazariyalarini taklif

qildilar: ishlab chiqarish omillari va texnikaning bir xilligi, mukammal raqobat va tovarlarning to‘la safarbarligi sharoitida xalqaro almashuv mamlakatlararo ishlab chiqarish omillari narxlarini tenglashtiradi (Samuelson P. Ekonomika. V 2 t. – M.: Algon, 1992. – T. 2, gl. 40, 41.).

Yuqoridagi nazariy qarashlar asosan tashqi savdoni erkinlashtirish orqali mamlakatning nisbiy afzalligidan yetarli darajada foydalangan holda iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Ammo, oxirgi nazariy qarashlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tashqi savdoni to‘liq erkinlashtirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlamaydi. Bu yerda asosan, importni ekrinlashtirishning eksport rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi e’tirof etilgan. Dj.Saksning ta’kidlashicha: «…ayrim Sharqiy Osiyo davlatlari importni to‘liq erkinlashtirmasdan eksportni rivojlantirishga erishdi. Ushbu mamlakatlarda import qachonki, eksportga yo‘naltirilgan sanoat barpo etilgan va mustahkamlangandan keyingina erkinlashtirila boshlandi» (Sachs J.D. Trade and Exchange Rate Policies in Growth-Oriented Ad- justment // Growth-Oriented Adjustment programms / Ed. by V.Corbo, M.Godstein, M.Khan – Washington DC: The IMF and The World Bank, 1987.).

Ayni vaqtda O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanish mohiyati ham eksportga yo‘naltirilgan strategiyaga asoslangan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olim Esh.Trushin tadqiqotlarida eksportning iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rniga quyidagicha baho beradi: «tashqi savdoni to‘liq erkinlashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning eng optimal strategiyasi hisoblanmaydi... Milliy iqtisodiyotni eksportga yo‘naltirilganligiga eksportni erkinlashtirish va eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash orqali erishish mumkin» (Trushin E.F. Eksportooriyentirovannoye razvitiye ekonomiki v usloviyax perexoda k rinku (na primere Respubliki Uzbekistan). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk, Tashkent. 1999 g.).

Bugungi kunda xalqaro savdoga nafaqat o‘zaro manfaatli almashinuv,

balki mamlakatlarning rivojlanish darajasidagi tafovutlarni qisqartirish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Har bir davlatning xalqaro savdo strategiyasi eksportga yo‘naltirilgan siyosatga tayanadi va mavjud eksport omillari samaradorligini muttasil oshirib borishni taqozo etadi.

Shunday qilib, eksport asosiy ikki vosita bilan: bir tomondan taklif, ikkinchi tomondan esa, talab orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi (Khan M.S. and Villanueva D. Macroeconomic Policies and Long-term Growth: A Conceptual and Empirical Review //IMF Working paper /91/28/ - Washington: The IMF 1991: P.20-33.). Taklif tomondan eksportning o‘sishi bevosita ishlab chiqarishga ko‘maklashuvchi infratuzilma, transport, kommunikatsiyaning rivojlanishiga olib kelsa, talab tomonidan eksportdan kelgan daromad ko‘pgina mahsulot turlariga bo‘lgan talabni oshishiga olib keladi. Talabning o‘sishi ichki taklifni o‘sishiga va ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantiradi.

Bizning fikrimizcha, eksport iqtisodiyotda makroiqtisodiy yondashuvning tarkibiy qismi hisoblanib, narx, talab va taklif, bandlik siyosatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi va rag‘batlantiradi, bu esa o‘z navbatida, ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keladi. Eksportning o‘sishi yuqori texnologiyalarga asoslangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shunga muvofiq yuqori qiymatga ega ish o‘rinlarini tashkil etishga imkon yaratadi. Shuning bilan birga, eksportdan olinadigan daromadlar yuqori sifatli mahsulotlar importini qoplashga va aholi turmush darajasini oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

D.Rikardoning qiyosiy xarajatlar nazariyasiga muvofiq eksport- import oqimlari xalqaro mehnat taqsimoti talablariga mos ravishda tarkibiy o‘zgarishlar jarayonlarini faollashtirib, milliy iqtisodiyot tarkibining takomillashuvini ta’minlaydi.

Mehnatning mamlakatlar o‘rtasida taqsimlanishi mamlakatlararo savdo hajmining o‘sishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunish va mazkur savdoda

o‘zaro manfaatdorlik nimadan iborat ekanligini anglash uchun nisbiy afzallik nazariyasini ko‘rib chiqish lozim. Nisbiy afzallik nazariyasi mehnat unumdorligining mamlakatlar bo‘yicha bir-biridan farqlanishiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga mufoviq, har qanday mamlakatda shunday bir mahsulot turi borki, har qanday sharoitda ham uni ishlab chiqarish boshqa mahsulotlarga nisbatan qulayroq va foydaliroq bo‘ladi. Mamlakat aynan ana shunday mahsulotni eksport qilishi lozim. Shunday qilib, D.Rikardo o‘z tadqiqotlarida samarali eksport asosida tovarlarning mutloq qiymati emas, balki nisbiy qiymati yotadi degan fikrni ilgari suradi (Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo ob- lojeniya – M.: Ekonov-Klyuch, 1993. s. 302.).

Rikardo modelida faqat bitta ishlab chiqarish omili – mehnat hisobga olinadi. Ammo, real hayotda xalqaro savdo nafaqat mehnat unumdorligining mamlakatlar bo‘yicha tafovuti, balki mamlakatlarning resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga ham asoslanadi.

Dj.Mill bevosita yuqorida ta’riflab o‘tilgan Rikardo nomi bilan bog‘liq tashqi savdo qonuniga savdoda ishtirok etayotgan davlatlar talabining xarajatlarga ta’siri haqidagi fikrni rivojlantirish vositasida aniqliklar va to‘ldirishlar kiritgan. Mazkur davlatlar tovarlari xarajatlari orasida tafovutning mavjudligi, samarali savdo almashinuvi uchun yetarli bo‘lmay, buning uchun eksport qiluvchi davlat tovarlariga talabning faollashuvi zarur. Xalqaro talabning tenglashuvi muvozanatni vujudga keltiradi, bunda bir davlat eksporti qiymati ikkinchi davlat importi qiymatiga teng bo‘ladi. Tashqi savdoda ishtirok etayotgan tovarlarga bo‘lgan yuqori talab va uning elastikligi tashqi savdo uchun maqbul sharoit yaratadi. Millning fikricha, xalqaro savdo ikki tomonlama talab vositasida boshqariladi (Mill Dj.S. Osnovi politicheskoy ekonomii i nekotoriye aspekti ix prilojeniya k sotsialnoy filosofii. V 3 t. – M.: Progress, 1980.).

Tashqi savdo aloqalaridagi ustunliklarni aniqlashda asosiy mezonlardan biri narxlardir. Ichki va jahon bozorlaridagi narxlarni solishtirish, eksport

qiluvchilar uchun mahalliy narxlarning jahon bozoridagi narxlardan past bo‘lgan vaziyatdagina sotish foyda keltirishi aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda, A.Smit davlatlar ixtisoslashuvlarida boshqa davlatlarga nisbatan mutloq ustunlikka ega bo‘lgan mahsulot turlarni tanlashlari zarur degan xulosaga keladi. A. Smit fikricha tashqi savdoda ham har bir oila xo‘jaligida amal qilinadigan tamoyillarga rioya qilish zarur (Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov – M.: Ekonov-Klyuch, 1993. s. 265.).